

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIK VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI
“QISHLOQ XO‘JALIGIDA MENEJMENT” FAKULTETI
«QISHLOQ XO‘JALIGIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT»
KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

fakultet dekani, i.f.n.

X.X.KOMOLOV _____

«___» _____ 2016 y.

«HIMOYAGA RUXSAT ETAMAN»

kafedra mudiri, i.f.n.

S.Q.MAXMUDOV _____

«___» _____ 2016 y.

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” TA’LIM
YO‘NALISHINING BITIRUVCHISI

MAMATKULOV ELIYORBEBKNING
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: ATB "AGROBANK" ANDIJON VILOYAT FILIALIDA
YURIDIK SHAXSLARGA BERILGAN UZOQ MUDDATLI
KREDITLARNI BUXGALTERIYA XISOBI.

BMI rahbari:

Fakultet dekani:

Bajaruvchi:

X.Komolov

E.Mamatkulov

ANDIJON – 2016

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO‘JALIK VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI
“QISHLOQ XO‘JALIGIDA MENEJMENT” FAKULTETI
«QISHLOQ XO‘JALIGIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT»
KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi va
audit kafedrasining mudiri i.f.n.

S.Q.Maxmudov_____

« ____ » _____ 20__ yil.

**Kunduzgi bo‘lim “Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya
hisobi va audit” ta‘lim yo‘nalishining 4-bosqich
talabasi Eliyor Mamatkulovning
bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun**

TOPSHIRIQ

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: *institut rektorining 2015 yil 10-sentyabrdagi №275-ST sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.*

2.BMIning mavzusi: ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida yuridik shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlarning buxgalteriya xisobi.

3.Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti 29 aprel 2016 y.

4.Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo‘limlari. BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat.

5.Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma‘lumotlar. «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining BHMSlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid adabiyotlar, ATB “Agrobank” Andijon viloyat filialining 2012-2013-2014-2015 yillardagi yig‘ma va yillik hisobotlari hamda mavzuga oid bo‘lgan boshqa ma‘lumotlari.

6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar. Bitiruv malakaviy ishda mavzu mohiyatini yoritishga yordam beradigan 6 ta jadval, 10 ta rasm, 20 uzatma tuzilib, ulardan 5 tasi bevosita ximoya jarayonida foydalaniladi.

<i>Bitiruv malakaviy ishning asosiy qismlari</i>	<i>Asosiy qismlarni bajarish vaqti</i>	<i>Rahbar unvoni, F.I.SH.</i>	<i>Imzo</i>
<i>Kirish</i>	10.10.2015 01.11.2015	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
I-BOB. IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA BANK KREDITLARI XISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI			
1.1.Tijorat banklarida buxgalteriya xisobining o'ziga xos xususiyatlari.	16.11.2015 01.12.2015	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
1.2.Xalq xo'jaligini rivojlantirishda bank kreditlarini o'rni va ahamiyati.	16.12.2015 01.01.2016	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
1.3.Bank kreditlari xisobini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari.	16.01.2016 01.02.2016	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
II-BOB ATB "AGROBANK" ANDIJON VILOYAT FILIALIDA KREDIT OPERATSIYALARI XISOBINI TASHKIL ETISH			
2.1.ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kreditlarni hujjatlashtirish va saqlash tartibi.	02.02.2016 16.02.2016	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
2.2.ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida mijozning to'lov qobiliyatini tahlil qilish.	17.02.2016 28.08.2016	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
2.3.ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kredit operatsiyalarini buxgalteriya xisobini yuritish tartibi.	01.03.2016 17.03.2016	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
III-BOB ATB "AGROBANK" ANDIJON VILOYAT FILIALIDA KREDIT OPERATSIYALARINI HISOBGA OLISH MASALALARI.			
3.1.ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida yuridik shaxslar bilan kredit munosabatlari.	18.03.2016- 25.03.2016	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
3.2.ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida qishloq xo'jalik korxonolari bilan kredit munosabatlari.	26.03.2016- 01.04.2016	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
3.3.ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida uzoq muddatli kreditlar bo'yicha xisobotlarni tuzish va taqdim etish.	02.04.2016- 05.04.2016	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
Xulosa	06.04.2016- 10.04.2016	Dotsent i.f.n. X.Komolov	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	11.04.2016- 19.04.2016	Dotsent i.f.n. X.Komolov	

Topshiriq berilgan vaqti: «10» sentyabr 2015 yil.

BMI rahbari:

Fakultet dekani:

X.Komolov

Bajaruvchi:

E.Mamatkulov

M U N D A R I J A

1.	Kirish	1-4
2.	I-BOB. IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA BANK KREDITLARI XISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	5-23
3.	Tijorat banklarida buxgalteriya xisobining o'ziga xos xususiyatlari.	5-11
4.	Xalq xo'jaligini rivojlantirishda bank kreditlarini o'rni va ahamiyati.	12-18
5	Bank kreditlari xisobini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari.	19-23
6	II-BOB ATB "AGROBANK" ANDIJON VILOYAT FILIALIDA KREDIT OPERATSIYALARIXISOBINI TASHKIL ETISH	24-46
7	ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kreditlarni hujjatlashtirish va saqlash tartibi.	24-30
8	ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida mijozning to'lov qobiliyatini tahlil qilish.	31-40
9	ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kredit operatsiyalarini buxgalteriya xisobini yuritish tartibi.	41-46
10	III-BOB ATB "AGROBANK" ANDIJON VILOYAT FILIALIDA KREDIT OPERATSIYALARINI HISOBGA OLISH MASALALARI.	47-69
11	ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida yuridik shaxslar bilan kredit munosabatlari.	47-52
12	ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida qishloq xo'jalik korxonolari bilan kredit munosabatlari.	53-64
13	ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida uzoq muddatli kreditlar bo'yicha xisobotlarni tuzish va taqdim etish.	65-69
14	Xulosa	70-72
15	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	73-74

**MAVZU: ATB "AGROBANK" ANDIJON VILOYAT FILIALIDA
YURIDIK SHAXSLARGA BERILGAN UZOQ MUDDATLI
KREDITLARNI BUFGALTERIYA XISOBI**

REJA:

**I-BOB. IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA
BANK KREDITLARI XISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-
HUQUQIY ASOSLARI**

- 1.1. Tijorat banklarida bufgalteriya xisobining o'ziga xos xususiyatlari.
- 1.2. Xalq xo'jaligini rivojlantirishda bank kreditlarini o'rni va ahamiyati.
- 1.3. Bank kreditlari xisobini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari.

**II-BOB ATB "AGROBANK" ANDIJON VILOYAT FILIALIDA KREDIT
OPERATSIYALARIXISOBINI TASHKIL ETISH**

- 2.1. ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kreditlarni hujjatlashtirish va saqlash tartibi.
- 2.2. ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida mijozning to'lov qobiliyatini tahlil qilish.
- 2.3. ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kredit operatsiyalarini bufgalteriya xisobini yuritish tartibi.

**III-BOB ATB "AGROBANK" ANDIJON VILOYAT FILIALIDA
KREDIT OPERATSIYALARINI HISOBGA OLISH MASALALARI.**

- 3.1. ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida yuridik shaxslar bilan kredit munosabatlari.
- 3.2. ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida qishloq xo'jalik korxonolari bilan kredit munosabatlari.
- 3.3. ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida uzoq muddatli kreditlar bo'yicha xisobotlarni tuzish va taqdim etish.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiyotining barcha sohaları kabi bank-moliya tizimida ham tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat banklarini xususiylashtirish va sog'lom raqobat muhiti yaratilganligi amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar samarali bo'lishini ta'minlaydi. Chunki mamlakatimizning bank-moliya tizimi bu mamlakat iqtisodiyotining butun qon-tomiri hisoblanadi. Shu boisdan ham, ushbu tizimda jadal sur'atlar bilan olib borilayotgan islohotlar natijasida butun mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashda o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Buni amaliy isboti sifatida Prezidentimiz I.A.Karimovning 2015 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida aytib o'tilganidek: "O'tgan yili bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va investitsiyaviy faolligini kengaytirish ta'minlandi. Bank tizimining jami kapitali 2014-yilga nisbatan 23,3 foiz ko'payib, 7 trillion 800 milliard so'mga yetdi. So'nggi 5-yilda mazkur ko'rsatkich 2,4 barobar o'sdi. Bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi qariyb 24 foizni tashkil qildi. Bu umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan 3-marta, bank likvidligi esa eng yuqori ko'rsatkichlardan 2-marta ko'pdir.

Jahon miqyosida savdo-sotiq ishlarining o'sish sur'ati sezilarli darajada sustlashgani, eksport qilinadigan eng muhim tovarlarga nisbatan tashqi talabning kamayishi va narxlarning pasayishiga qaramasdan, biz tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldog'a erishdik. Bu esa davlatimizning oltin-valyuta zaxirasini oshirish imkonini berdi.”.¹

Bundan tashqari yurtboshimiz o'z ma'ruzasida *bugungi kunda bank-moliya tizimini islox qilish nechog'lik muhim ekanligiga alohida e'tibor qaratib, markaziy*

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi 16.01.2016

bank tijorat banklari bilan birgalikda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar ajratish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, boshlang'ich kapitalni shakllantirish, mikrokreditlar berish ko'lamini kengaytirish borasidagi ishlarni davom ettirishi lozimligi, 2015 yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning ushbu sektoriga ajratiladigan kreditlar hajmini kamida 1,3 barobar ko'paytirish darkorligini ta'kidlab o'tdilar.

Mazkur chora – tadbirlar zahirida Prezidentimizning tijorat banklari yetarli kapitalga ega hamda moliyaviy barqaror bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, ular yirik investitsiya institutlariga aylanishi zarurligi haqidagi fikrlari yotishini alohida ta'kidlash joiz.

Qolaversa, Yurtboshimizning “Investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi”² degan fikrlari banklarning investitsiya jarayonlaridagi o'rni naqadar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bunday ulkan rejalarni amalga oshirishda, qolaversa, tijorat banklarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari va raqobat bozori rivojlanib borayotgan bugungi kunda, o'z o'rinlarini topishlari uchun banklar tizimida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chunki buxgalteriya hisobi va nazoratning puxta yo'lga qo'yilishi bankning o'z vazifalarini to'g'ri bajarishini ta'minlaydi. Buning uchun buxgalterlardan muayyan bilimlar, buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy tamoyillari hamda uslublarini tushunish talab qilinadi.

Yuqoridagi muhim vazifalardan ko'rishimiz mumkinki tanlangan mavzu bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biridir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi - tijorat banklarida yuridik shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlarni hisobga olish hamda ularni rasmiylashtirilishini qonunchilik talablariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi tartiblarini atroflicha ko'rsatib berish hisoblanadi.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagilar asosiy vazifalar sifatida ko'rib chiqiladi:

² Prezidentimiz I.A.Karimovning “Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi” kitobidan

➤ Tijorat banklarida buxgalteriya xisobining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

➤ Xalq xo'jaligini rivojlantirishda bank kreditlarini o'rni va ahamiyatini o'rganish;

➤ Bank kreditlari hisobini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari bilan tanishish;

➤ ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kreditlarni hujjatlashtirish va saqlash tartibi bilan tanishish;

➤ ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida mijozning to'lov qobiliyatini baholashni o'rganish;

➤ ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish tartibi bilan tanishish;

➤ ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida yuridik shaxslar bilan kredit munosabatlarini o'rganish;

➤ ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kreditlar bo'yicha xisobotlarni tuzish va taqdim etishni o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari - Bitiruv ishining nazariy asoslari bo'lib, Prezidentimiz I.A.Karimovning farmonlari va iqtisodiyotimiz rivojlanishiga bag'ishlangan asarlari, Oliy majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Vazirlar maxkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalar va ko'rsatmalari shuningdek, taniqli mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarining ilmiy nashrlari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishini yoritishda - "Agrobank" aktsiyadorlik tijorat banki ob'ekt sifatida tanlab olingan. Bitiruv malakaviy ishini to'liq amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlash maqsadida yuqoridagi bank ma'lumotlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi - Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, nazariy va uslubiy asoslari, bitiruv malakaviy ishining ob'ekti hamda ishning tarkibi va tuzilishi yoritilgan.

Birinchi bobda bank kreditlari hisobining nazariy-huquqiy asoslari deb nomlangan bo'lib, unda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank kreditlarining mohiyati, ahamiyati va zarurligi, xalq xo'jaligi uchun bank kreditlarining o'rni va turlari, ularni turkumlash hamda bank kreditlari hisobini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari bilan tanishilgan.

Ikkinchi bob bevosita amaliyotga bog'lanagan bo'lib, unda ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida bank kreditlarini hujjatlashtirish, ularni saqlash tartibi, mijozni to'lov qobiliyatini baholash, banklarda kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish atroflicha o'rganilgan.

Uchinchi bob xam bevosita amaliyotga bog'lanagan bo'lib, ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kredit operatsiyalarini hisobga olish masalalari bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishning yakunida mavzu bo'yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan hamda uni amaliyotga tadbiq qilish yo'llari keltirilgan.

I-BOB. IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA BANK KREDITLARI XISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY- HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining rivojlanishida banklar alohida o'rin egallaydi.

“Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan, “bank – tijorat tashkiloti”³ bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

- to'lovlarni amalga oshirish.

Banklar o'z faoliyatida ko'plab operatsiyalarni bajaradi. Bularning hammasi banklarda amalga oshiriladigan buxgalteriya hisobi bilan chambarchas bog'liqdir. Ularga yuridik va jismoniy shaxslarning, bank hisobvaraqlarini ochish, yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblar o'tkazish, omonatlar jalb etish, kreditlar berish, qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish va sotish, moliyaviy lizing xizmatini ko'rsatish, kassa operatsiyalarini bajarish, chet el valyutasini sotish va xarid qilish, pul mablag'lari, hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish va bir qator boshqa operatsiyalarni kiritish mumkin.

Bank faoliyatida, yuqorida sanab o'tilgan operatsiyalarni bajarish jarayonida pul mablag'larining harakati va ularning manbalari haqidagi ma'lumotlarni yig'ishda buxgalteriya hisobi katta o'rin tutadi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalangan holda bankning aktiv va passiv operatsiyalari rejalashtiriladi. Moliyaviy hisobotlarning natijasi bankning moliyaviy holatini ko'rsatadi va bank rahbarlariga bank ishini rivojlantirishda aniq chora va tadbirlar ishlab chiqishga

³ “Bank siri to'g'risida”gi qonun

sharoit yaratadi. Shu qabul qilingan siyosat asosida tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi yaratiladi. Bu faoliyat bank xodimlarining kunlik ish jarayonlarida hamda operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishda o'z ifodasini topadi.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- a) davlatimizning qonunchiligiga rioya qilish;
- b) buxgalteriya hisobining xalqaro andozalariga rioya qilish;
- c) bankning o'z amaliyotidan kelib chiqib, odatiy operatsiyalarini hisobga olgan holda buxgalteriya hisobini tashkil qilish;
- d) banklar o'zining hisob siyosatini ishlab chiqish bilan birga Respublika Markaziy banki tomonidan belgilab berilgan umumiy yo'riqnoma va nizomlarga rioya qilish;
- e) buxgalteriya hisobini ilmiy asoslangan holda tashkil etish.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari milliy iqtisodiyotimizning turli tarmoqlariga qarashli korxona va tashkilotlarning buxgalteriya hisobi asoslari bilan deyarli o'xshash. Ular O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunida o'z ifodasini topgan. Ushbu qonundan kelib chiqqan holda banklarda buxgalteriya hisobini yuritishning metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- a) xo'jalik faoliyati haqidagi ma'lumotlarni dastlabki hujjatlarda aks ettirish;
- b) xo'jalik operatsiyalarini, bank mulkini puldagi ifodasini belgilash;
- v) barcha operatsiyalarni ikkiyoqlama yozuv asosida guruhlash, bunda yozuvlarni hisobvaraqlar rejasidagi hisob raqamlari asosida olib borish;
- g) hisob-kitob va boshqa operatsiyalar yakunida ma'lum sanaga bank xo'jalik faoliyatiga tavsif berish, ya'ni bank balansini tuzish.

Banklarda buxgalteriya ishini tashkil etish asoslari korxonalar buxgalteriya hisobiga o'xshash bo'lsa-da, ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Shu sababli banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishda quyidagi huquqiy va me'yoriy hujjatlar asos qilib olinadi:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
- 3.O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.
- 4.O'zbekiston Respublikasi "Banklarda buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomasi.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining boshqa me'yoriy hujjatlari.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish qoidalari "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008-yil 3-maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan yo'riqnomada batafsil yoritilgan. Ushbu yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 11-iyulda 1834-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Yo'riqnomada buxgalteriya hisobi yuritish qoidalari, buxgalteriya apparatining strukturasi berilgan, bank operatsiyalari hisobini yuritish va ularni nazorat qilish qoidalari ko'rsatilgan, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanishini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobotini tuzish hamda xalqaro andozalarga asoslangan boshqa bank operatsiyalarini bajarish hajmlari va tartibi belgilab qo'yilgan.

Banklarda buxgalteriya hisobi oldiga bir qator vazifalar qo'yilgan bo'lib, ular:

- hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish, mijozlarga tez va puxta xizmat ko'rsatish;
- hisob-kitob, kassa, valuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish;
- bajarilgan operatsiyalar buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida hamda aniq aks ettirilishini ta'minlash;
- bankdan chiqadigan hujjatlarni tegishlicha rasmiylashtirish va buning natijasida bu hujjat borgan joyda ulardan foydalanishni yengillashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ana shu hujjatlar bilan operatsiyalar

bajarilayotganda hamda ular tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan mijozlar hisobvaraqlarining hisobi yuritilayotganda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning, g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish;

- bankda turgan pul mablag'lari, moddiy boyliklar, shuningdek, qat'iy hisobi yuritiladigan blankalar kam chiqish yoki ortiqcha sarflab yuborilishining oldini olish;

- operatsiyalar bajarilayotganda bank mansabdor shaxslari qonunga zid xatti-harakatlar qilgan, boyliklar va hujjatlar yo'qotib qo'yilgan hollarda ular javobgarligini hujjatlar bilan asoslash;

- operatsiyalar bajarilishi, rasmiylashtirilishining qonuniyligi va to'g'riligini keyinchalik tekshirish va ma'lumotlar olish imkoniyatini yaratish;

- bankda ish kuni tartibiga qat'iy rioya qilish;

- zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan keng foydalanish asosida bank operatsiyalarini bajarish uchun mehnat va mablag' sarfini kamaytirish, ular hisobini yuritish, hisobotlar tuzish va hokazo.

Umuman, yo'riqnomada bayon etilgan buxgalteriya ishi va buxgalteriya hisobi yuritishni tashkil etishning tartibi yangi kompyuter texnikasi qo'llaniladigan sharoit asosida belgilangan. Yo'riqnomada va uning ilovalarida berilgan operatsiyalarni bajarish, rasmiylashtirish, hisobga olish va nazorat qilish to'g'risidagi ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasidagi barcha banklar uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra tijorat banklari mulkchilikning qaysi shakliga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar yuritadigan buxgalteriya hisobi Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan chiqarilgan yo'riqnoma va ko'rsatmalar talabi darajasida bo'lishi zarur.

Ayni paytda bu yo'riqnomalar o'z vaqtida bank filiallariga yetkazilmog'i, shu bilan birga, mahalliy organlar, soliq nazorati organlari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim. Chunki bank buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish doirasi juda keng. Xususan, buxgalteriya hisobi va shu asosda tuziladigan bankning moliyaviy hisobotlari, uning ma'lumotlari Davlat tartibga solish idoralari

jumladan, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi uchun tijorat banklarining mo-liyaviy ahvoli, pul muomalasining holati, iqtisodiyotdagi naqd pulsiz hisob-kitoblar holatini o'rganish uchun o'ta muhimdir.

Bank egalari uchun, shu bilan birga, uning hissadorlari uchun bu ma'lumotlar bank mablag'larining qanday jalb qilinayotganligi, ulardan qay usulda foydalanilayotganligi, bank aktiv operatsiyalardan qanday moliyaviy natijalar kutilayotganligini bilish uchun juda muhim. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bank rahbarlari, uning xodim-lari, ayni chog'da bank mijozlari uchun ham qiziqarlidir. Chunki bank rahbarlari va barcha xodimlari bankning kunlik aktivlari va majburiyatlarining holati, daromadlari va xarajatlarining strukturasi bilan qiziqsalar, bank mijozlari esa bank likvidligi va uning barqarorlik darajasini bilishni istaydilar. Raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona bankning boshqaruv apparati ikki asosiy omilga e'tibor bermog'i zarur:

- bank rentabelligi;
- bankning likvidligi.

Bankning rentabelligi deganda bankning bir me'yorda faoliyat yuritishi va bank rivoji uchun yetarli daromad olish imkoniga egaligi tushuniladi. Bank o'z oldidagi majburiyatlarini belgilangan muddatda to'lay olish uchun yetarli pul va boshqa to'lov mablag'lariga ega bo'lishi bank likvidligi deyiladi. Har ikkala ko'rsatkichni yuqori darajada ushlab turish lozim. Chunki bankning moliyaviy ahvoli yomonlashganini sezgan mijozlar boshqa barqaror bankka o'z mablag'larini o'tkazib, uning xizmatidan foydalanishni afzal ko'radilar.

Demak, bank buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bank haqidagi aniq ma'lumotlarni olish nuqtayi nazaridan Markaziy bank, Soliq nazorati idoralari, barcha tijorat banklari va mijozlar, bank aksiyadorlari, mavjud va bo'lg'usi investorlar uchun juda zarur. Bu ma'lumotlar asosida bankning likvidligi, yo'l qo'yayotgan xatari, rezervlari, kredit portfeli holatini belgilash imkoniyati yaratiladi. Umumiy qilib aytganda, buxgal-teriya hisobini tashkil qilishda hisob ma'lumotlari nafaqat ichki, balki yuqori boshqaruv uchun zarurligini hisobga olish bilan birga, tashqi foydalanuvchilar ehtiyoji ham e'tiborga olinishi kerak.

Bank faoliyati bo'yicha moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan bilvosita foydalanuvchilar mavjud bo'lib, ularning ham o'ziga yarasha manfaatdorligi bor. Bunday foydalanuvchilar tipiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- auditorlik firmalari;
- moliyaviy savollar yuzasidan maslahatchilar;
- qimmatli qog'ozlar birjalari;
- qonunchilik idoralari;
- huquqshunoslar, jumladan, xo'jalik sudi vakillari;
- matbuot va axborot agentliklari;
- sug'urta idoralari, kasaba uyushmalari va boshqalar.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda hisob ishlari hajmini aniqlab olish, buxgalteriya xodimlari sonini, ular o'rtasida hisob ishlari taqsimotini, qo'llaniladigan hisob shaklini, hisob ishlarida hisoblash texnikalaridan foydalanishini belgilab olish kerak bo'ladi.



1.1-rasm. Bank faoliyati bo'yicha moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan bilvosita foydalanuvchilar. Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, bank faoliyatiga taalluqli qarorlarni to'g'ri qabul qilinishi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisob ma'lumotlarini o'z vaqtida va to'g'ri tuzilganligiga bog'liq bo'ladi. O'z vaqtida olinmagan yoki noto'g'ri yuritilgan buxgalteriya hisob ma'lumotlari noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga, natijada banklarning zarar ko'rishiga, ba'zi hollarda esa bankrotlik holatiga kelishga ham sabab bo'lishi mumkin.

1.2. Xalq ho'jaligini rivojlantirishda bank kreditlarini o'rni va ahamiyati.

Joriy yil boshidan buyon Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasining 10 foizdan 9 foizgacha tushirishi shu yilning birinchi yarmida tijorat banklarining iqtisodiyot real sektoriga kredit ajratish hajmini 30.5 foiz ko'paytirish imkonini berdi va umumiy hajmning 79.7 foizini investitsiya maqsadlari uchun uzoq muddatli kreditlar tashkil qildi.

Xususan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida joriy yil boshidan buyon texnologik uskuna xarid qilish va aylanma kapitalni to'ldirish uchun iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga tijorat banklari tomonidan 2.2 trillion so'mdan ortiq yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1.3 foiz, jumladan, oziq-ovqat maxsulotlari 21.6 foiz va nooziq-ovqat maxsulotlar ishlab chiqarish 8.3 foiz ko'paydi.⁴

Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, yuqori texnologiyani muhim ishlab chiqarish quvvatlarini fiydanishga topshirishni tezlashtirish, shuningdek, hududlar sanoat salohiyatini mustahkamlash, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi samarasida joriy yilning birinchi yarmida o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmi 18 trillion so'mni tashkil qildi va 2014-yilning shu davriga nisbatan 9.8 foiz oshdi.

Ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari bilan birga investitsiyaviy faollikning o'sishi qurilish ishlari hajmini 18 foiz oshirish imkonini berdi.

O'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmining 1.5 milliard dollar yoki 21.3 foizini xorijiy investitsiyalar yoki kreditlar (o'sish 11 foiz), jumladan, 1.2 milliard dollarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (o'sish 10.9 foiz) tashkil qildi. O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan

⁴ 2015-yilgi "Engil sanoat bo'yicha statistik ma'lumotlar"

iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun o'zlashtirilgan mablag'lar hajmi 5.6 foiz o'sdi va 225 million dollarni tashkil etdi.

Joriy yilning birinchi yarmida o'zlashtirilgan eng ko'p investitsiyalar hajmini xo'jalik subektlarining o'z mablag'lari tashkil qildi (umumiy hajmining 32.3 foizi) va bu ko'rsatkich 2014-yilning shu davriga nisbatan 31.8 foiz o'sdi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va raqobatdoshligini oshirish bo'yicha tarmoq dasturlari, shuningdek, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlar faol amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Joriy yil boshidan buyon investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 160.9 million dollarlik 63 loyiha amalga oshirildi. Maxsus tashkil etilgan industrial zonalarda 2015-yil bosidan buyon umumiy qiymati 16.1 million dollarlik 5 loyiha, jumladan, "Jizzax" maxsus industrial zonasi hududida tikuv mashinalari, avtomobil tormoz kolodkalari, metizlar, metal profillar, polipropilen quvurlar, fittinglar, ventil va aksessuarlar hamda "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida bakteriyalar va virusga qarshi dori preparatlari ishlab chiqarish hayotga tadbqiq etildi.

Umuman, mamlakatimizda joriy yilning birinchi yarmida 1866 ta ishlab chiqarish quvurlari ishga tushirildi va 24.8 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etildi.⁵

Kreditlar aholi bandligini ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda:


Qarshida Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi bilan Markaziy bank hamkorligida bank tizimi sohasiga oid qonun hujjatlari ijrosi samaradorligi va ta'sirchanligini oshirishga bag'ishlangan seminar tashkil etildi.

Unda Qashqadaryo viloyati, tuman va shahar Kengashlari deputatlari, mahalliy ijro etuvchi va boshqaruv organlari rahbarlari, tadbirkorlar ishtirok etdi.

⁵ WWW.dis.ru saytidan olingan

Tadbirda so'nggi yillarda mamlakatimizda bozor islohotlarini chuqurlashtirish hamda iqtisodiyotni liberallashtirish, ishbilarmonlik muhitini qaror toptirish, aholi turmush darajasini yaxshilashning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Xususan, Prezidentimizning 2011-2015 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlarni chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirish sohasidagi chora-tadbirlar dasturi hamda "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosi doirasida xususiy mulkning ustivorligini ta'minlash hamda uning huquqiy muhofazasini kuchaytirish, korxonalarning moliviy-xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat organlari aralashuvini qisqartirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ro'yobga chiqarildi. Ayni chog'da viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda shu orqali aholi bandligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu borada olib borilayotgan sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, 2015 yilda viloyat bo'yicha 2366 ta kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari ro'yxatdan o'tkazilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tuzilmalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oldingi yilga nisbatan 115 foiz o'sgan. Eksport hajmi 111 foiz oshib, 62,2 mln AQSH dollarini tashkil etgan, uning umumiy eksport hajmidagi ulushi esa 18 foizgacha ko'tarilgani e'tirofqa loyiq.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari tomonidan 268,5 mlrd so'mlik kreditlar ajratilgan. Soha sub'ektlari tomonidan taqdim etilgan istiqbolli loyihalarga xorijiy kredit liniyalarining 11,1 mlrd. so'mlik mablag'lari yo'naltirildi. Bu ko'rsatkich 2014 yilga nisbatan 32 foiz ko'pdir. Investitsiya dasturlari hamda boshqa dasturlarni amalga oshirish natijasida o'tgan yili 88794 ta ish o'rni yaratilgan.




1.2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar, shu jumladan mikrocreditlar (mlrd. so'm)

Banklar kreditlari hisobidan moliyalashtirilayotgan tadbirkorlik loyihalari ichki va tashqi bozorlarni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish, jumladan kasb-hunar kollej bitiruvchilari va xotin-qizlar bandligini ta'minlamoqda.

O'quv-seminarda mamlakatimiz rahbarining alohida farmon va qarorlariga muvofiq tadbirkorlik sub'ektlariga kredit mablag'lari, ayniqsa imtiyozli mablag'lar ustuvor ravishda olis va borish qiyin bo'lgan tumanlar hamda mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan aholi maskanlarida joylashgan tadbirkorlik sub'ektlariga yo'naltirilayotgani ta'kidlab o'tildi. Viloyatdagi ana shunday hududlar – Chiroqchi va Dehqonobod tumanlaridagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 26,4 mlrd so'mlik kredit mablag'lari ajratildi.


Yoshlarni, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ularning bandligini ta'minlash borasida yaratilgan imtiyozlar, ko'rilayotgan chora-tadbirlar seminarda atroflicha muhokama qilindi.

Tijorat banklarining kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bilan yaqin aloqada ish olib borishi o'z samarasini bermoqda. Natijada viloyatdagi kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirishga 2015 yilda 2014 yilga nisbatan 1,9 barobar ko'p yoki 2,9 mlrd. so'mlik imtiyozli mikrocreditlar ajratildi.




1.3-rasm. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirishga ajratilgan imtiyozli mikrocreditlar (mlrd. so'm)

Qashqadaryolik tadbirkor ayollar banklarning kredit resurslaridan foydalanish osonlashganini o'z faoliyatlarida ko'rmoqda. Birgina o'tgan yilning o'zida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadlariga 22,0 mlrd. So'm miqdorida kreditlar ajratildi yoki ushbu ko'rsatkich qariyb 1,4 barobar o'sishi ta'minlandi.



1.4-rasm. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadlariga ajratilgan kreditlar (mlrd. So'm)

Aytish o'rinliki, viloyatda xizmat ko'rsatish va servis sohasi rivojlanib bormoqda. Yangidan yangi xizmat ko'rsatish ob'ektlari qurilib, foydalanishga topshirilmoqda. Tijorat banklarining viloyatdagi filiallari tomonidan mazkur soha ravnaqiga o'tgan 2012 yilda 30,4 mlrd. so'm yoki 2011 yilga nisbatan 1,6 barobardan ortiq miqdorda mablag'lar ajratildi.



1.5-rasm. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar (mlrd. So'm)

Shuningdek, oilaviy biznesni tashkil etmoqchi bo'lgan tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar hajmi 5,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bundan tashqari 2,5 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli mikrokreditlar evaziga o'nlab parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, issiqxona xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish yo'lga qo'yildi. mikrokreditlar ajratishni kengaytirish borasida ko'rilayotgan choralar qishloq hududlarida ko'plab oilalarning o'z tomorqalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

1.3. Bank kreditlari hisobini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari.

Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan xatarlarni oldini olish bo'yicha o'z yo'nalish va metodlarini, shuningdek, kredit portfelini samarali boshqarish uchun kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab qilinadi. Buning uchun esa eng avvalo hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar, me'yoriy hujjatlar bilan doimo xabardor bo'lish, ularni o'rganish kerak bo'ladi.

Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari, Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan kreditlash tartiblari va boshqa me'yoriy hujjatlarga tayanadi.

Tijorat banklarining investitsiya faoliyati kengaytirilishini yanada rag'batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalash hajmlarini oshirish uchun ularning resurs bazasini mustahkamlash maqsadida Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarga muvofiq:

- tijorat banklarining tuzilmalari qayta tashkil etildi, eng yirik banklarda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo'yicha departamentlar (boshqarmalar) tuzildi, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish, moliyalash va amalga oshirilishini monitoring qilish bilan shug'ullanuvchi banklarning tarkibiy bo'linmalari sezilarli ravishda o'zgartirildi hamda ularning funktsiyalari kengaytirildi;

- barcha tijorat banklarida investitsiya faoliyati masalalariga mutasaddilik qiladigan banklar boshqaruvi raislarining o'rinbosarlari lavozimi joriy etildi, ularga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 oktyabrdagi R-3075-sonli farmoyishiga muvofiq o'tkazilgan attestatsiya natijalari bo'yicha qonunchilik bazasini chuqur biladigan, investitsiya loyihalarini investitsiyaviy moliyalash, tanlab olish va ekspertiza qilish sohasida zarur ko'nikmalarga ega bo'lgan rahbarlar tayinlandi;

➤ banklar balansiga qabul qilingan bankrot-korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalash bo'yicha tijorat banklarining faoliyati rivojlandi. Banklarning umumiy kredit portfeli tarkibida bir yildan ko'proq muddatga berilgan kreditlar hajmi 70 foizdan ortiqroqni tashkil etmoqda.

“Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166 sonli qarori ga ko'ra investitsiya faoliyatini kengaytirish sohasida tijorat banklarining eng muhim vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

➤ yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha bankning kredit hamda investitsiya siyosatini va investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, buning asosida bankning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash;

➤ loyiha hujjatlari, ularning moliyaviy jihatdan o'zini qoplashi va rentabelligini chuqur tahlil qilish asosida investitsiya loyihalarini puxta tanlab olish, kompleks baholash hamda sifatli ekspertiza qilishni ta'minlash;

➤ investitsiya loyihalarini moliyalashga o'z moliya mablag'larini sarflash va ulardan samarali foydalanish, loyihalarning amalga oshirib borilishini doimiy monitoring qilish, qo'yilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlash;


➤ tavakkalchilik, garovlar va ta'minlashning boshqa turlari bozor qiymatini puxta baholashni hisobga olgan holda, berilgan kreditlarning o'z vaqtida hamda to'liq qaytarilishini ta'minlaydigan ishonchli mexanizmlardan keng foydalanish;

➤ investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan banklar bo'linmalarini professional tayyorlangan yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash, investitsiya loyihalarini tanlab olish, ekspertiza qilish va amalga oshirish

masalalari bo'yicha bank mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish sifatini tubdan yaxshilash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi PF-4058-son Farmoni bilan tasdiqlangan iqtisodiyotning real sektori bazaviy tarmoqlari korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturining amaldagi ijrosini ta'minlash, shuningdek aylanma mablag'larni to'ldirish uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish hisobiga eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini qo'shimcha ravishda rag'batlantirish, aholi bandligini oshirishga va yangi ish o'rinlari tashkil etishga ko'maklashish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2009 yil 8 iyunda "Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish hisobiga eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Bundan tashqari tijorat banklari kredit operatsiyalarini amalga oshirishda o'z kredit siyosatini ishlab chiqadilar. Tijorat banklari bank kredit siyosati – bankning kreditlash faoliyatida maqsad va yunalishlarini asoslovchi hujjat hisoblanadi. Tijorat banklarining kredit siyosati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000 yil 22 fevralda tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2000 yil 2 martda 905-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom va boshqa xuquqiy-normativ aktlar asosida ishlab chiqiladi.



1.6-rasm. Kredit siyosati bilan bog'liq qonunlar.

Mazkur kredit siyosati O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi, “Garov to'g'risida”gi, “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi, “Valyutani tartibga

solish to'g'risida"gi, "Mikromoliyalash to'g'risida"gi, "Bank siri to'g'risida"gi, "Bankrotlik to'g'risida"gi, "Ipoteka to'g'risida"gi, "Iste'mol krediti to'g'risida"gi, "Lizing to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi "Agrobank aktsiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4051 sonli Farmoni hamda Makrokreditlar berish va makrolizing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari hamda «Investitsion loyihalarni erkin almashtiriladigan valyutada kreditlash tartibi to'g'risida"gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 294-sonli va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining 22 mart 1999 yilda ro'yxatga olingan 681-sonli tartib) asosida tashkil etiladi.

Xulosa kilib aytganda, bank kreditlari hisobini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini mukammal urganib chikish orkali bank kreditlari hisobini tugri yulga kuyish imkoniyati vujudga keladi.

2.1. ATB"Agrobank" Andijon viloyat filialida kreditlarni hujjatlashtirish va saqlash tartibi.

Bankning kredit siyosati - kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.


Tijorat banklarida kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqariladi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Har bir bank o'z kredit siyosatini ishlab chiqishi va amalga joriy etishi lozim. Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruvi a'zolari, bankning boshqa mansabdor shaxslariga yuklatiladi.

Kredit siyosatining tavsifi kredit portfelining tarkibiga, bank o'z faoliyatini amalga oshirayotgan hududning iqtisodiyotiga qarab aniqlanadi. Kredit strategiyasini shakllantirishda va tegishli kredit siyosatini tayyorlashda, bank ushbu omillarni hisobga olishi shart.

Kredit siyosati bank faoliyati turlariga qarab mazmuni va tuzilmasi jihatidan farq qiladi. Mazkur bo'lim bank maqomi va u joylashgan manzildan qat'i nazar kredit siyosatida aks ettirilishi lozim bo'lgan umumiy masalalar ro'yxatini belgilab beradi. Bunda kredit siyosatining yo'nalishlarida berilayotgan kreditlarning hajmi va shakli, qisqa va uzoq muddatli kreditlar o'rtasidagi nisbat, moliyaviy axborotlarni tahlil etish jarayoni, kredit portfeli hamda mablag'larning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar aks ettirilishi lozim.

Ushbu jarayonlar bir-biri bilan kredit siyosatida uzviy bog'liqlik tarzida amalga oshirilib boriladi.



2.1-rasm. Kredit siyosatining mazmuni.

Bankning kredit siyosati uning joriy bank strategiyasi va iqtisodiy holatiga muvofiqligini ta'minlash uchun bank Kengashi tomonidan yiliga kamida bir marta tegishli yilning 1 fevraligacha bo'lgan muddatda qayta ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak.

Kredit siyosati mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kredit siyosatining maqsadi va strategiyasi;
- Vakolatlar darajasi va mas'uliyatni taqsimlash;
- Kredit turlari
- Kreditlarning to'planishi
- Kreditlarni to'lash
- Qarzdorlarga doir moliyaviy axborot
- Garov ta'minotiga nisbatan qo'yiladigan talablar
- Kredit monitoringiga nisbatan qo'yiladigan talablar
- Foiz stavkalari
- Bog'liq shaxslar bilan bajariladigan operatsiyalar
- Ko'zda tutilmagan holatlar moddalari (balansdan tashqari moddalar)
- Kredit portfelini audit qilish
- Bank boshqaruvi va kengashiga taqdim etiladigan hisobotlar

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini amaliyot bilan bog'lagan holda o'rganish maqsadida ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida kredit berish tartibi va ularni hujjatlashtirish tartibini yaqindan ko'rib chiqdik.

"Agrobank" ATB kredit siyosatining asosiy maqsadi kichik biznes, xususiy tadbirkorlik hamda fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ishchi o'rinlarini yaratish, ayniqsa qishloq joylarida aholini keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lishini ta'minlash uchun moliyaviy mablag'lar berishni yanada kengaytirish hisoblanadi.

Kredit siyosatining asosiy vazifasi bo'lib, yuridik shaxslarga makrokredit va makrolizing xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, xizmat

ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, yangi shakllanayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy quvvatlash, kichik biznes, tadbirkorlik sub'ektlariga, fermer va dehqon xo'jaliklariga o'zlarining ishlab chiqarish faoliyatini mustahkamlash va kengaytirishlari uchun kreditlar berish hamda aholiga maxalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan uzoq muddat foydalaniladigan xalk iste'mol tovarlari xarid qilish uchun iste'mol kreditlari ajratish, shuningdek uzoq muddatli investitsiyalardan aktsiyadorlarga yuqori daromad kelishini ta'minlash, mijozlar bilan o'zaro ishonch va hurmat asosiga tayangan mustahkam o'zaro hamkorlikni rivojlantirishni ta'minlash, xududning kreditlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir.

Belgilangan vazifalarni ijrosi "Agrobank" ATBni yuqori likvidlik va foyda bilan faoliyat ko'rsatishini talab etadi.

"Agrobank" ATB aksariyat har bir mijozga individual yondashgan holda bank xarajatlarini qoplash uchun yetarli darajada daromad olish maqsadida xizmat ko'rsatish bo'yicha tariflari va kredit foizlarni o'rnatadi va o'zgartirib boradi, bozor kon'yukturasidan kelib chiqib, boshqa banklar o'rtasida raqobatdoshligini ta'minlash maqsadida o'zining moddiy texnik holatini rivojlantiradi va mustahkamlaydi.

Kreditlashning strategik yo'nalishlari bank Kengashi tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi.

Mazkur kredit siyosati bank ichki normativ hujjati hisoblanib, barcha filiallar tomonidan kredit amaliyotlarini bajarishda foydalanishi majbur hisoblanadi va bank kredit xodimlariga ko'llanma bo'lib xizmat qiladi.

«Agrobank» ATB tadbirkorlarning doimiy o'zgarib turuvchi talabiga javob berishi, shuningdek korxonalarga iqtisodiyotda bo'layotgan o'zgarishlarini inobatga olgan xolda faoliyat ko'rsatishiga yaqindan yordam beradi.

Bank kredit xizmatlari - ishlab chikarish sektoridagi barcha turdagi tadbirkorlik sub'ektlariga, qishlok xo'jalik, savdo va xizmat ko'rsatish, hamda qurilish korxonalariga ma'lum bir muddatga, import va eksport amaliyotlarini

bajarishga, jismoniy shaxslarni ko'chmas mulk va uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan iste'mol tovarlari xarid qilishni moliyalashtirishga ko'rsatiladi.

Kredit siyosati to'lovlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, mablag'larning qaytarilishi va berilgan kreditlar bo'yicha qarzdorlikni undirib olish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

Kredit siyosatida bank kredit portfelini vaqti-vaqti bilan baholashga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ro'yxatini belgilashi hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va tuzatishlar minimal yuzaga keluvchi yo'qotishlar bilan kiritilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo'yishi lozim.

ATB "Agrobank"da kredit yig'ma jildini shakllantirish va taxlil etish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

a) bank kredit xodimi tomonidan qarz oluvchining kredit olishga taqdim etgan arizasini ko'rib chiqish va bo'lg'usi qarz oluvchi bilan kredit olish maqsadi yuzasida suxbat o'tkazish;

b) qarz oluvchi arizasini ro'yxatga olgan holda, mijozga kredit olish uchun taqdim etilishi talab etiladigan hujjatlar ro'yxatini taqdim etish.

Qarz oluvchining analitik va kutilayotgan ma'lumotlaridan kelib chiqib kredit olishga kredit iltimosnomasi tuziladi.

Har bir mijoz tomonidan berilgan arizalar maxsus yuritilgan, xar bir beti nomerlangan, tikilgan, bank bo'limi muxri bilan muxrlangan va bank raxbari va bosh hisobchi tomonidan imzolangan ruyxatga olish daftarida kayd etilishi talab etiladi.

Mazkur talablarni inobatga olgan holda, mijoz tomonidan kredit buyurtmasi unga quyidagilar ilova qilingan holda qabul qilinadi:

a) kredit (turlari bo'yicha) olish uchun buyurtmanoma;

b) pul oqimi tahlilini majburiy tarzda ko'rsatgan holdagi Biznes-reja (taqdim etiladigan biznes-reja kredit olish uchun buyurtmanoma berilgan sanadan ko'pi bilan 60 kun oldin tuzilgan bo'lishi kerak);

v) kreditning qaytarilishi ta'minlanishi bilan bog'liq hujjatlar, shu jumladan

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'ldirilgan buxgalteriya va moliyaviy hisobot ma'lumotlari;

Markaziy bankning 2000 yil 22 fevraldagi 432-sonli "O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomning ko'zda tutilgan talablariga asosan kredit yig'majildi hujjatlari muhofazasi va vakolatligini ta'minlash maqsadida filial rahbari buyrug'i bilan kredit yig'majildini yuritish va saqlash mas'ul bank xodimi zimmasiga yuklatiladi.

Mijoz tomonidan taqdim etilgan kredit buyurtmasi va unga ilova qilingan hujjatlar kredit hujjatlari nazoratchisi tomonidan tahlil qilib chiqilib kredit qo'mitasiga xulosa taqdim etadi.

Kredit hujjatlari nazoratchisi kredit shartnomasi imzolanib tasdiqlangan kundan boshlab kredit yig'ma jildini shakllantiradi hamda kredit, foiz qarzdorliklari va asosiy qarzi to'liq undirilgandan so'ng uni yopadi.

Bankning kredit hujjatlari nazoratchi xodimi yuqorida qayd etilgan barcha hujjatlarni olgandan so'ng:

a)sub'ektning kredit layoqatliligi va to'lovga qobiliyati, reyting bahosi, kredit maqomi, korxonaning pul mablag'lari yoki tez sotiladigan qisqa muddatli obligatsiyalar bilan ta'minlanganligini tahlil etadi;

b)biznes rejaning qat'iyligi va uning so'ralayotgan kredit maqsadlariga muvofiqligini baholaydi;

v)pul oqimlari, qabul qilinayotgan ta'minotning likvidligini o'rganadi.

Mijoz tomonidan takdim etilgan biznes reja amaldagi talablarga asosan kreditlarning maqsad yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilgan holda ko'rib chiqiladi.

Kredit noziri tomonidan kredit qo'mitasiga kredit hujjatlari bo'yicha ijobiy yozma hulosa taqdim etgan xolda hujjatlar kredit qo'mitasida ko'rib chiqiladi.

Qo'mitaning ijobiy xulosasi asosida kredit yig'majildi tayyorlanadi. U kredit shartnomasi imzolangan yoki tasdiqlangan kundan boshlab ochiladi hamda asosiy qarz va foiz to'liq to'langandan so'ng to'liq yopiladi.

Kredit yig'majildi birlamchi taqdim etilgan hujjatlardan tashqari o'z ichiga

quyidagi hujjatlarni oladi:

- a) shaxsning qarz oluvchi nomidan kredit shartnomasi va kreditlash bilan bog'liq boshqa hujjatlarni imzolash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;
- b) garov ta'minotini baholash dalolatnomasi;
- v) kreditdan maqsadli foydalanishi haqida bank dalolatnomasi;
- g) kreditdan foydalanishning haqiqiy maqsadi guvohligini beruvchi to'lov topshiriqnomalarining nusxalari;
- d) kredit hisobiga to'lov amalga oshirilgan tovarlar yetkazib berish yoki ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi shartnomalarning nusxalari;
- e) tovar yetkazib berilganligi va u qabul qilinganligi yoki xizmat ko'rsatilganligi haqida guvohlik beruvchi tovar-transport yukxatlari, hisobvaraqq-faktura hamda boshqa hujjatlarning nusxalari;
- j) kredit monitoringi o'tkazilishi haqida guvohlik beruvchi hujjatlar;
- z) kafillik beruvchining buxgalterlik balansi va moliyaviy axvoli to'g'risidagi ma'lumot.

Kredit hujjatlarini saqlash tartibi quyidagichadir:

- a) kredit shartnomasi, garov va kafillik, sug'urta polisi hamda kafolat to'g'risidagi shartnomalar va muddatli majburiyatlarning asl nusxalari balansdan tashqari hisobvaraqqa tegishli tarzda olinishi bilan bank kassasining omborida saqlanadi;
- b) yuqorida zikr etib o'tilgan hujjatlarning nusxalari bankning kredit yig'ma jildida saqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mijozlar bilan kredit operatsiyalari bo'yicha xujjatlar tuzish va saqlash quyida aytib o'tilgan tarzda amalga oshiriladi. Bunda asosan bank xodimlari mijozlar bilan ishlashda ularning bankka topshiradigan xujjatlari bilan tanishib chiqishadi. Shundan so'ng bank xodimlari yig'ilgan xujjatlar bo'yicha bir qarorga kelishgandan so'ng, topshirilgan xujjatlar ijobiy xulosaga ega bo'lsa, mijozga berilishi mumkin bo'lgan kredit summasi ajratiladi. Mijozning bankka topshirgan xujjatlari esa bank arxiviga saqlash uchun topshiriladi.

2.2. ATB "Agrobank" Andijon viloyat filialida mijozning to'lov qobiliyatini baholash.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida bank tizimida, xususan kreditlash mexanizmidagi tub o'zgarishlar yuzaga keldi. Endi mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash kredit mexanizmining asosiy elementi sifatida namoyon bo'ldi va bu, o'z navbatida, bozor tamoyillari asosida takomillashib bormokda.

Kreditlash jarayoni qarz oluvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi va belgilangan muddatda kreditning to'liq qaytarilmasligi kabi ko'pgina xatarlar bilan bog'liq. Berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytmasligi tijorat banklari faoliyatiga, ularning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korxonalarning kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda kredit berish, uni o'z vaqtida qaytarilishining muhim omili hisoblanadi. Markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida mijozni kreditlash jarayonida kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari chuqur tahlil etilmagan va uning amaliyotda muhim ekanligi ochib berilmagan. Chunki, kreditlash jarayonlari belgilangan limitlar asosida, markazlashtirilgan usulda amalga oshirilgan.

Shu bois tijorat banklari mijozlarga kredit ajratishda avvalambor ularning kreditga layoqatliligini tahlil etishi va tahlil jarayonida mijozning kredit tarixi va uning moliyaviy holatini, qarz oluvchining o'z vaqtida majburiyatlarini bajara olish imkoniyatlarini keng va chuqur tahlil qilishi lozim.

Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, qarz oluvchilarning kreditni o'z vaqtida qaytarishga qodirligi, aylanma mablag'lari va kreditlardan samarali foydalanishi ular faoliyatining daromadlilik darajasini balans ma'lumotlari va moliyaviy natijalari asosida tahlil qilish orqali mavjud majburiyatlarni bajarishga mijozning tayyorligi, korxona va tashkilotlarning ish yuritish usullari, rivojlanish istiqbollari, rahbarning ishini tashkil etish va yurgizish fazilatlarini o'rganish orqali aniqlanadi.

Kreditga layoqatlilikni tahlil qilishda turli manbalarda mavjud ma'lumotlardan foydalanish ijobiy natija berishi mumkin. Bular turkumiga:

a) bevosita mijozdan olingan ma'lumotlar;

- b) mijoz bo'yicha bank arxivida mavjud bo'lgan axborotlar;
- v) mijoz bilan ish yuzasidan aloqada bo'lgan shaxslar tomonidan berilgan ma'lumotlar;
- g) kredit byurosi ma'lulotlarini kiritish mumkin.

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda bank xodimi mijozning kreditga layoqatliligini o'rganib chiqib, uning faoliyatiga baho berishi va xulosa qilishi mumkin.

Kredit riskining vujudga kelishi ikki asosiy parametr kredit beruvchi va qarz oluvchi o'z vazifalarini qay darajada bajarishiga bog'liq. Qarz oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo'yicha loyiha tayyorlash kreditlovchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Bu bosqichda kredit beruvchi:

1. Qarz oluvchining iqtisodiy, moliyaviy ahvoli, uning ishchanlik, ma'naviy qiyofasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, marketingi, moliyaviy boshqaruvi va boshqalarni;
2. Kreditga bo'lgan talabning qanchalik darajada to'g'ri asoslanganligi va bu asos korxonaning chinakam iqtisodiy holatidan kelib chiqqanligi;
3. Kreditning maqsadi bank manfaati uchun ham to'g'ri kelishi kabi savollarga to'liq va aniq javob olishi lozim.

Hozirgi kunga qadar respublikamiz tijorat banklarida mijozning kreditga layoqatliligini baholash asosan uchta ko'rsatkich asosida amalga oshirilmokda.



2.2-rasm. Kreditga layoqatligini baholash ko'rsatkichlari.

Ushbu ko'rsatkichlar asosan mijozning kreditga layoqatliligini baholasada, faoliyatining asosiy omili bo'lgan pul oqimlarini hamda mijozning shaxsini to'liq baholash imkonini bermaydi. Holbuki, pul oqimi zaif bo'lgan mijozlar kreditni qaytarishda jiddiy qiyinchiliklarni boshidan kechiradilar. Bundan tashqari, respublikamiz bank amaliyotida kredit oluvchining yuridik shaxs sifatida shaxsiy mezonlari kuzatuv ob'ekti sifatida to'liq o'rganilmaydi.

Kreditga qobillikni baholash xo'jalik sub'ektlarining balans va foyda zararlar to'g'risidagi hisobotlariga asosan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, kreditga qobillikni aniqlash davrida zaruriy hollarda statistik analitik va boshqa ma'lumotlardan ham foydalaniladi.

Kredit tavakkalchiligining darajasini aniqlashdagi muhim ko'rsatkichlardan biri bu korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligini ifodalovchi koeffitsiyentdir.

Kredit tavakkalchiligini tahlil qilishlik uchun avvalo, yuqorida ko'rsatib o'tilgan koeffitsiyentlar hisoblab chiqiladi va ularning optimal ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi. Agar hisoblangan ko'rsatkichlar taxminan optimal ko'rsatkichlar bilan bir xil bo'lsa, u holda tahlilni davom ettirmasa ham bo'ladi. Ko'p hollarda ba'zi ko'rsatkichlar kredit tavakkalchiligining yuqoriligi haqida dalolat bersa, ba'zilari buning aksini ko'rsatadi. Bu holda kredit tavakkalchiligiga baho berish qiyin bo'ladi va shu hollarda tahlil qilishni davom ettirish lozim bo'ladi. Ko'p hollarda optimal ko'rsatkichlardan uzoq bo'lgan koeffitsiyentlarning o'zinigina strukturalarga ajratiladi. Muxtorlik koeffitsiyenti o'zining optimal ko'rsatkichidan uzoqlashganda o'z mablag'laridan va jalb qilingan kapitaldan foydalanish samaraliligini quyidagim ko'rsatkichlarni qo'shimcha tahlil qilib aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qoplash koeffitsiyenti, likvidlik koeffitsiyenti va o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik (avtonomiya) koeffitsiyentlari kreditga qobillikni asosiy ko'rsatkichlaridir.

Balansning qoplash koeffitsiyenti qisqa muddatli tarzdagi likvid mablag'larni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati tarzida aniqlanadi:

$$Q_k = LM/Q_{m.M}$$

Q_k -qoplash koeffitsiyenti;

LM - qisqa muddatli tarzdagi likvid mablag'lar;

$Q_{m.M}$ - qisqa muddatli majburiyatlar;

Qoplash koeffitsiyenti (Q_k) likvid mablag'lari summasining qisqa muddatli majburiyatlar summasi nisbatini o'zida ifodalaydi. Q_k taxminan 2,0-2,5 dan kam bo'lmashligi kerak. Bu qisqa muddatli majburiyatlarning har bir so'miga likvid mablag'larining 2 so'mdan kam bo'lmagan qismi to'g'ri kelishini anglatadi.

Agarda likvidlik aktivlar qisqa muddatli majburiyatlardan kamida ikki barobaridan ko'p bo'lsa, bunday xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy ahvoli barqaror hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, xo'jalik sub'ektlarining ishlab chiqarish xususiyati, aktivlarining tarkibi kabi omillar qoplash ko'rsatkichini ifodalovchi xo'jalik va tashkilotlar balansidagi haqiqiy likvidlik holatini baholashda bir muncha noaniqliklarni vujudga keltirishi mumkin.

Shu sababdan balans likvidligi ko'rsatkichini aniqlashda har xil omillarni ta'sirini kamaytirish maqsadida xo'jalik sub'ektlarining balans likvidligi ko'rsatkichi pul mablag'lari va yengil hal qilinadigan talablarini qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatida aniqlanadi, ya'ni bunda tovar moddiy qiymatliklari zahirasi hisobga olinmasdan faqatgina real likvidlik aktivlari qayd etiladi.

$$LK = PM + EhT/Q_{m.m}$$

bunda:

LK - likvidlik. koeffitsiyenti

PM - pul mablag'lari

EhT - yengil hal qilinadigan talablar

$Q_{m.m}$ - qisqa muddatli majburiyatlar

Likvidlik koeffitsiyenti joriy majburiyatlarning ma'lum qismi nafaqat naqd mablag'lar hisobidan balki jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan

xizmatlardan tushishi kutilayotgan tushumlar hisobidan ham qoplanishi mumkinligini ko'rsatadi.

3. Xo'jalik sub'ektlarini o'z manba'lari bilan ta'minlanganligi (avtonomlik ko'effitsiyenti AK) korxonani o'z manba'larini balansning passiv qismi jami summasidagi ulushini aniqlash bilan baholanadi va korxonani qarz mablag'larining manba'laridan mustaqilligini ko'rsatadi.

O'z manba'lari bilan ta'minlanganlik ko'effitsiyenti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$AK = O'MM/BP$$

bunda:

AK - avtonomlik ko'effitsiyenti;

O'MM - o'z mablag'lari manba'lari

BP - balansning jami passiv qismi

Korxonaning o'z mablag'lari manba'lari bilan taminlanganligi 30 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Aylanma mablag'lar aylanishining yuqoriligi va xo'jalik organlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda ushbu ko'rsatkichning belgilangan darajasi birmuncha past ham bo'lishi mumkin.

Agar ushbu ko'effitsiyent 0,6 dan ya'ni 60 foizdan yuqori bo'lsa kredit xatari eng kam darajaga keltirilgan hisoblanadi.

Korxonaning o'z mablag'lari hajmi ustav fondining summasi, hissadorlarning qo'shimcha badallari, tovar-moddiy zahiralarning qayta baholanishi, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydadan iborat. Uning optimal ko'rsatkichi $K_{mq}=0,5$ ga teng bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkich qarz oluvchilarning o'z mablag'larining summasini korxonaning umumiy mablag'laridan katta bo'lishi lozimligini anglatadi. O'zbekiston hududida xo'jalik sub'ektlarini qisqa muddatli kreditlashda asosan bu ko'rsatkichning minimal miqdori 0,3 dan kam bo'lmasligi lozim.

Qishloq xo'jaligi korxonalari bo'yicha avtonomlik ko'effitsiyenti yillik hisoboti bo'yicha aniqlanadi va bu miqdor butun yil davomida hisobga olinadi.

O'z aylanma mablag'larining mavjudligi va aylanma mablag'larning aylanishi kreditga qobillikning qo'shimcha ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Muxtorlik koeffitsenti hissadorlarning, aktsiya egalarining va kreditorlarning manfaatlarini va shu bilan birga moliyaviy mablag'larning tarkibini ham ifodalaydi, ya'ni chetdan jalb qilingan kapital bilan o'z mablag'lari ta'minlanganligining nisbiy darajasini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich depressiya davrida korxonalarni katta yo'qotishlardan saqlaydi va kredit olish uchun kafolat hisoblanadi. Bu ko'rsatkich orqali korxonaning moliyaviy ahvoliga baho berish mumkin.

4. O'z aylanma mablag'larining mavjudligi:

$$\mathbf{O'AMM = O'MM-UMA}$$

bunda;

- O'AMM- o'z aylanma mablag'larining mavjudligi;
- O'MM- o'z mablag'lari manba'i;
- UMA- uzoq muddatli aktivlar;

Agarda xo'jalik sub'ektining uzoq muddatli aktivlari (balans aktiv qismining 1 bo'limi) o'z mablag'lari manba'laridan oshib ketsa bunday holda balans nolikvidligi yuzaga keladi. Ushbu Nizom talablariga muvofiq balans nolikvidligiga yo'l qo'ygan xo'jalik sub'ektlari bank kreditidan foydalanish huquqiga ega emaslar.

5. Xo'jalik sub'ektlarining aylanma mablag'larini aylanishi ikkita ko'rsatkich bilan aniqlanadi: aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti va aylanma mablag'larning aylanishi kun hisobida.

Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti aylanma mablag'larning aylanish tezligini ifodalaydi va tahlil etilayotgan davr mobaynida mahsulot sotishdan tushgan tushumni aylanma mablag'larni o'rtacha bahosiga bo'lish bilan aniqlanadi;

$$\mathbf{Akoef. = S / O'q}$$

bunda:

Akoef.-aylanish koeffitsiyenti

S -sotilgan mahsulot hajmi

O'q- aylanma mablag'larning o'rtacha xronologik qoldig'i.

Yuqorida keltirilgan koeffitsiyentlar mijoz faoliyatining ba'zi bir aspektlari samaradorligini tavsiflaydi. Tijorat nuqtaiy nazaridan ular sotuvning yo ortiqligini yoki kamligini, moliyaviy nuqtai nazaridan kapital oborotining tezligi, iqtisodiy jihatdan — pul mablag'larining aktivligini tavsiflaydi.

O'tkazilgan tahlil natijalariga va koeffitsiyentlar darajalariga asosan xo'jalik va tashkilotlar kreditga qobillikning 3 ta sinfi bo'yicha tasniflanadi va ularning qaysi sinfga mansubligiga qarab bank bilan korxona o'rtasida kreditlash aloqasi o'rnatiladi.

1-jadval

**KREDITGA QOBILLIKNING ASOSIY KO'RSATKICHLARIGA
SINFLAR BO'YICHA QO'YILGAN TALABLAR.**

№	Ko'rsatkichlar nomi	1-sinf	2-sinf	3-sinf
1	Qoplash koeffitsiyenti	$QK > 2,0$	$2,0 > QK > 1,0$	$1,0 > QK > 0,5$
2	Likvidlik koeffitsiyenti	$LK > 1,5$	$1,5 > LK > 1,0$	$1,0 > LK > 0,5$
3	Avtonomiya koeffitsenti	$AK > 60\%$	$50\% > AK > 30\%$	$30\% > AK > 15\%$

- Ma'lumot ATB «Agrobank» yo'riqnomalar kitobidan olingan

Birinchi sinfga mansub korxonalar umumiy tartib (shartlar) asosida kreditlanadi. Bunday korxonalarga imtiyozli tartibda ishonchli kreditlar berilishi hamda qonunchilikka va bankning ichki kredit siyosatiga muvofiq boshqa imtiyozlar ko'llanilishi ham mumkin.

Ikkinchi sinfga mansub korxonalar ham umumiy tartibda kreditlanadi va agarda bu korxonalar qo'shimcha tarzda qandaydir ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, bularga ham imtiyozlar berilishi mumkin (ishonchli kredit berilishidan tashqari).

Agarda korxonalar ikkinchi sinfga mansub bo'lib qo'shimcha tarzda salbiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, bunday korxonalar nobarqaror korxonalar hisoblanadi. Bank bu korxonalar bilan kredit shartnomasini tuzishda kreditni muddatida qaytarilishi va ularning faoliyati ustidan nazorat o'rnatish maqsadida garov huhuqini kuchaytirish, foiz stavkalarini oshirish, kredit miqdorini va undan foydalanish muddatlarini chegaralab qo'yish kabi qo'shimcha choralar qo'llanilishini ko'zda tutishi lozim.

Uchinchi sinfga kiritilgan korxonalar kreditni qaytara olmaydigan sub'ektlar hisoblanadi va fakat istisnoli xollarda, yukori tashkilot kafolati bilan yoki mulkni garovga olib, oshirilgan foiz stavkasi undirish sharti bilan kreditlanadi.

Kreditga qobillik ko'rsatkichlari 3-sinfdan past bo'lgan korxonalarni kreditlash mumkin emas.

“Agrobank” aktsiyadorlik-tijorat bankining kredit siyosatida kredit ta'minotiga nisbatan qo'yiladigan talablar quyidagicha tasdiqlangan:

Kreditning so'ndirilmaslik xavf-xataridan xoli bo'lish maqsadida qarz oluvchi asosiy mezonida likvid ta'minot turiga ega bo'lishi lozim.

Ta'minotni baxolashning asosiy printsiplari:

Asosiy koida shundan iboratki, bank garovga olinayotgan mulkning haqiqiy qiymatini aniklashi zarur. Bu muxosiblik hujjatlarida garovning xakkoniy bozor qiymati aks ettirilishi kerakligidir. Shu sababli xar bir kredit berilganda, xar bir ta'minot aloxida baxolanishi shart. Buning maksadi xatarining oldini olishdir.

Qabul qilinadigan garov kreditlashning uni berish vaqtidayoq kreditni to'lash manbasi hisoblangan yagona asosi bo'lmasligi lozim.

Ta'minotni baxolaganda doimo sotish imkoniyatlari va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bulgan sharoitlar inobatga olinishi shart. Ta'minot sifatida past likvid va bozorda tez-tez baxosi o'zgarib turuvchi ob'ektlar qabul qilinmaydi. Garovga olinayotgan mulk uzoq saqlanish imkoniga ega bo'lishi zarur.

Ta'minot turlari:

1. Bank yoki sug'urta kompaniyalari kafolatlari ;

2. Sug'urta kompaniyalari polisi ;
3. Uchinchi shaxs (yuridik) kafilligi;
4. Biznes mulk (do'konlar, mexmonxonalar, tsexlar, ofisxonalar va boshkalar);
5. Natural qiymatga ega tovarlar, qimmatbaho buyumlar, valyuta, o'z bankidan depozitlar, shuningdek avtotransport;
6. Qurilish uchastkalari (biznes maksadida);
7. Kredit hisobiga xarid kilinadigan asosiy vositalar va jixozlar;
8. Davlat kiska muddatli majburiyatlari.

Qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatlarining mulk va boshqa ta'minot turlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- a) boshqa garovdan xoli bo'lishi;
- b) aktivlarning pul mablag'lariga aylana olish qobiliyati, yuqori likvidlikka ega bo'lishi;
- v) uzoq vaqt saqlana olish xususiyatiga ega bo'lishi.

Mulk garovi kreditni ta'minlashning asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. Xar qanday mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin. Undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan fuqarolarning ayrim turdagi mol-mulkini garovga qo'yish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda man etilishi yoki cheklanishi mumkin.

Qarz oluvchining o'zi, shuningdek uchinchi shaxs ham garov qo'yuvchi bo'lishi mumkin.

Ko'chmas mulk garovi to'g'risidagi shartnoma "Ergeodezkadastr" davlat qo'mitasining tegishli tuman (shahar) xo'jalik hisobidagi kadastr va ko'chmas mulk xizmatida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Beriladigan kredit summasi garovga qo'yilgan mol-mulk qiymatining 80 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas. Garov buyumlari - transport vositalari va ko'chmas mulk ob'ektlari - yo'qotish va ziyon yetkazilishi hodisalaridan qarz oluvchi hisobiga sug'urta qilinishi kerak.

Kreditni ta'minlash uchun likvidli tovarlar, xorijiy valyuta va garov shaklida rasmiylashtiriladigan valyuta boyliklarining boshqa turlari qabul qilinishi mumkin.

2.3. ATB “Agrobank” Andijon viloyat filialida kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish tartibi.

Banklarda kredit munosabatlarini tartibga solish ularni nazorat qilish bevosita ular hisobini to'g'ri tashkil etilishi bilan bog'liqdir.

Tijorat banklarda kredit hisobini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun, shuningdek bank muassasalari uchun belgilangan banklarda hisob ishlarini tashkil etish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2004 yil 27 noyabrda 25/9-sonli Qarori bilan tasdiqlangan № 594 «Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq olib boriladi.

Bank kreditlarini hisobga olishda berilayotgan asosiy kredit summasi va foizlarni hisoblash hamda hisobda aloxida aks ettirish talab etiladi.

Bank kreditlari o'z resurslari hisobidan berilishi tufayli berilayotgan kredit bank muassasasi uchun moliyaviy kuyilma sifatida qaraladi. Berilgan ssudalar 11900-15500 hisobvaraklarda sub'ektlar turi va kredit muddatiga karab ajratilib hisobga olib boriladi.

Bank kreditlarini hisobga olishda ularni turli belgilariga karab tasniflab olinadi:

1.Muddatiga karab;

- kiska muddatli (bir yilgacha) kreditlar,
- uzok muddatli (bir yildan ortiq muddat) kreditlar.

2. Berilgan sub'ektlariga karab;

- markaziy banka berilgan kreditlar;
- xukumatga berilgan kreditlar;
- yuridik shaxslarga berilgan kreditlar;
- jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar.

Bank kreditlari buyicha foizlar hisoblash va ularni hisobda aks ettirish mijoz bilan tuzilgan shartnomaning foizlarni to'lash muddati va hisoblash usullariga karab yuritiladi.

Real foiz stavka usuli – aktivning xizmat muddati davomidagi kechiktirilgan (masalan, har oyda emas, har yilda olinadigan yoki to'lanadigan) foizli to'lovlarga taqsimlash orqali diskont yoki mukofotni foizli daromadga amortizatsiyalash yo'li bilan doimiy foiz stavkasini tan olinishiga olib keladigan usuldir

Real foiz stavkasi – moliyaviy aktivning mo'ljallangan xizmat muddati davomida yoki maqbul bo'lgan holda, qisqaroq davrda kutilayotgan kelgusi pul to'lovlari yoki tushumlari oqimlarini uning sof balans qiymatigacha aniq diskontlaydigan stavka;

Qadrsizlanishdan ko'riladigan (yoki ko'rilishi mumkin bo'lgan) zarar - kreditning balans qiymati uning qoplanadigan qiymatidan oshib ketgan summa. Bu qarzdor kreditni to'liq summasi (asosiy qarz va foizlar)ni qaytaraolmasligini va bank zarar ko'rishiga keltirishi mumkinligini bildiradi.

Qoplanadigan qiymat – kreditning balans qiymati va kreditning dastlabki real foiz stavkasi bo'yicha diskontlashdan kutilayotgan pul oqimlarining joriy qiymatidan eng kattasi.

Bank tomonidan berilgan kredit amaldagi qiymatida aks ettiriladi va u qarzdorga berilgan pul mablag'lari summasini ifodalaydi. Masalan, "Agrobank" ATB tomonidan kredit naqd pulda berilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 11900 - 15500 (Muddati va sub'ektlariga karab tegishli kredit hisobvarag'i)

Kt 10100 – "Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari"

Agar mablag' oluvchiga boshqa tijorat banki tomonidan xizmat ko'rsatilsa quyidagi o'tkazma beriladi:

Dt 11900 - 15500 (Muddati va sub'ektlariga karab tegishli kredit hisobvarag'i)

Kt 10301 - "Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro"

Kredit oluvchiga ushbu tijorat banki xizmat ko'rsatsa buxgalter quyidagicha o'tkazma beradi:

Dt 11900 - 15500 (Muddati va sub'ektlariga karab tegishli kredit hisobvarag'i)

Kt – 20208 Mablag' oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i

Kredit berish munosabati bilan bank tomonidan olinadigan vositachilik haqi qarzdorning moliyaviy ahvolini va investitsiya loyihalarini qoplanishini baholash, kafolatlarni baholash va aks ettirish, garov va boshqa ta'minotlarni tashkillashtirish bo'yicha tadbirlar, hujjatlarni tayyorlash va ular bilan ishlash hamda bitimni yakunlash bilan bog'liq bank xarajatlari kompensatsiyasini o'z ichiga oladi. Ushbu vositachilik haqlari kreditning summasiga qarab banklar kredit siyosatida alohida belgilab beradi. Shu kabi vositachilik haqlari kredit berish va kelgusida kredit munosabatlarida qatnashishning ajralmas qismi bo'lib, va ularga tegishli to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar bilan birgalikda, muddati uzaytiriladi va real daromadni tuzatish (korrektirovka qilish) sifatida tan olinadi. Bundan tashqari, banklar kredit berish borasida yozma majburiyat uchun vositachilik haqi olishlari mumkin.

Banklar tomonidan mazkur mijozga ko'rsatilgan xizmatlari uchun potentsial qarz oluvchilardan vositachilik haqi olinayotganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt - 20208 Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i

Kt - 22896 "Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar"

Kredit berish to'g'risidagi yozma majburiyat bergani uchun olingan vositachilik daromadlari, kredit shartnomasini tuzishi ehtimoli mavjud bo'lgan taqdirda, bankning kredit berish jarayonida doimiy ishtirok etganligi uchun to'lov (kompensatsiya) sifatida qaraladi. Bank tomonidan olingan vositachilik daromadlarining muddati, ular bilan bog'liq bevosita xarajatlar bilan birgalikda uzaytiriladi va ular real daromadga tuzatishlar (korrektirovka) sifatida tan olinadi.

Agar kredit berish bo'yicha majburiyat muddati tugab, kredit talab qilib olinmagan bo'lsa, u holda kredit berish majburiyati uchun vositachilik haqi shu muddat tugagandan keyin daromad sifatida tan olinadi.

Qarzdor tomonidan kredit muddatidan oldin qaytarilsa yoki kreditdan qaytarish muddatidan oldin boshqa shaxs foydasiga voz kechilsa, bank shu bilan bog'liq har qanday kechiktirilgan vositachilik haqini kredit qaytarilgan yoki boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan sanasiga muvofiqlik tamoiliga asosan daromad sifatida tan oladi.

Kreditning balans qiymati va kreditning boshlang'ich foiz stavkasi bo'yicha diskontlangan kutilayotgan bo'lajak pul oqimlarining joriy qiymati o'rtasidagi farq bo'yicha bank ko'rilishi mumkin bo'lgan kelgusi zararlarni baxolab boradi. Baholangan zararlarni buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiradi:

Dt 56802- "Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash"

Kt – Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi – Kreditning mos kategoriyasi (kontr – aktiv)

Agar kredit portfelining keyingi tahlili natijasida uning zaxiralari belgilangan talablardan oshsa, bank zaxira summasini oxirgi sana holati bo'yicha aniqlangan, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar summasiga muvofiqlashtirishi lozim. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt – Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi – Kreditning mos kategoriyasi (kontr – aktiv)

Kt 56802- "Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash"

Kreditlarni qaytarilishi qarz oluvchining asosiy, shuningdek ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Dt- 20208 Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i

Kt – 11600 -15500 Ssuda hisobvarag'i

Agar kredit kafolat beruvchi (kafil) tomonidan qaytarilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt – 20208 Kafolat beruvchi (kafil) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i,

Kt – 11600-11500 Ssuda hisobvarag'i

Agar kredit oluvchiga boshqa tijorat banki xizmat ko'rsatsa

Dt 10301 – Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro

Kt –11600-11500 Ssuda hisobvarag'i

Kreditlar qarz oluvchi tomonidan naqd pulda qaytarilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10100 – “Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari”

Kt – 11600-11500 Ssuda hisobvarag'i

Agar kreditga foiz o'stirmaslik maqomi berilmagan bo'lsa, unda kreditlar bo'yicha foizlar tushumi quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali aks ettiriladi:

Dt- 20208 Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i

Kt 16309 – “Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar”

Foizlarni o'stirmaslik maqomi berilgan kreditlar bo'yicha foizlar hisobi
Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida Nizom (ro'yxat raqami 1304, 2004 yil 24 yanvar)ga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar qarzdor tomonidan olingan garov bilan ta'minlanmagan kredit qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmasa, u holda ushbu kreditlar zararlar uchun tashkil qilingan zaxira hisobiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisobdan chiqariladi:

Dt - Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi – Kreditning mos kategoriyasi (kontr-aktiv)

Kt – Ssuda hisobvarag'i

Agar qarzdor tomonidan olingan garov bilan ta'minlangan kredit qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmasa, u holda bank olingan kreditni garovga qo'yilgan mol-mulk orqali undirish huquqiga ega. Undirib olish bo'yicha garovga qo'yilgan mol-mulk kim oshdi savdosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sotiladi. Garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan mablag'lar kelib tushganda:

Dt 10301- Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro

Kt 29801 “Mijozlar bilan hisob-kitoblar” hisobvarag’i kreditlanadi

Kreditlar bo’yicha asosiy qarzni va kredit bo’yicha hisoblangan, lekin hali olinmagan foizlarni qaytarish quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Asosiy qarz qaytarilganda:

Dt 29801 “Mijozlar bilan hisob-kitoblar”

Kt – Ssuda hisobvarag’i.

Asosiy qarz to’liq qaytarilgandan keyin, foizlar qaytarilayotganda:

Dt 29801 “Mijozlar bilan hisob-kitoblar”

Kt 41400-44600 - Kreditlar bo’yicha foiz daromadlari

Banklarda mijozlar bilan kredit bo’yicha operatsiyalar yuqorida keltirilgan maxsus xisob varaqlar orqali amalga oshiriladi.

3.1. ATB “Agrobank” viloyat filialida boshka yuridik shaxslar bilan kredit munosabatlari va uni amaliyotda qo'llanilishi

Yuridik shaxs-fuqorolik huquq va majburiyatlarining sub'ektlari hisoblanuvchi korxona, muassasa, tashkilotlar. O'zbekiston respublikasi fuqorolik qonunchiligiga ko'ra, yuridik shaxs o'z mulkida, ho'jalik yuritishida operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlariga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotdir. Yuridik shaxs mustaqil balans yoki smetaga ega bolishi kerak.

O'zbekiston respublikasining Fuqorolik Kodeksida yuridik shaxslarning quyidagi 2 turi farqlanadi:

1.Tijoratchi tashkilotlar, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilotlar (xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlar).

2.Tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan tashkilotlar (jamoat birlashmalari va fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlari).

O'zbekiston respublikasida yuridik shaxslarning ta'sischisi chet el fuqarosi va chet el kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Qoidaga ko'ra ustav jamg'armasining midori ta'sis etilayotgan yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilayotgan paytda 150000\$ ortiq va ulushning kamida 30% ini chet el investorlarining hissasi tashkil etsa, bunday yuridik shaxs – qo'sha korxona, agar 100% lik to'lov chet ellik investorga tegishli bo'lsa, bunday yuridik shaxs-xorijiy korxona hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib qishloq xo'jalik korxonalari qaysi faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, o'sha faoliyatni rivojlantirish uchun tijorat banklaridan kredit summalarini olishmoqda.

Har bir tijorat banki kredit operatsiyalarini amalga oshirayotganda Markaziy Bank tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi kredit shartlarini amalda havola etadi.

KREDIT SHARTLARI:

- 1.Qisqa muddatli kredit - aylanma kapital
- 2.Qisqa muddatli kredit - chakana savdo
- 3.Uzoq muddatli kredit - aktiv
- 4.Kreditlar bo'yicha imtiyozlar
- 5.Lizing
- 6.Kredit olishga buyurtma

Uzoq muddatli kredit – yuridik shaxslarga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, biznesni kengaytirish uchun asosiy vosita sotib olish maqsadida beriladi.

Uzoq muddatli kredit doirasida siz:

- turli maqsadlarga mo'ljallangan asbob-uskuna
- engil avtotransport
- tirkagich va yarim tirkagichlar
- ishlab chiqarish binolari
- savdo maydonchalari (do'kon, savdo markazlari)
- yuk tashish avtotransporti
- turli maqsadlarga mo'ljallangan maxsus texnika
- idora binolari
- omborxonalar
- biznesda foydalaniladigan boshqa asosiy vositalar sotib olishingiz mumkin.

Hozirgi kunga kelib ATB "Agrobank" tijorat banki tomonidan berilayotgan uzoq muddatli kreditlar ichida eng ommalashgani bu "IPOTEKA" kreditidir.

KREDIT MAQSADI:

Ipoteka krediti – qarz oluvchilarga bank tomonidan bankning o'z mablaglari hisobidan qurilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan hamda sotib olinayotgan uy-joy joylashgan yer uchastkasi bilan birgalikda garovga olingan holda beriladigan kreditdir.

KREDIT MUDDATI:

- Uy-joy qurish va ko'p qavatli uylardagi kvartira yoki yakka tartibda qurilgan uylarni sotib olish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 10 yilgacha muddatga (yosh oilalar uchun 15 yilgacha 3 yillik imtiyozli davr bilan);
- Yakka tartibda qurilgan uylarni qayta qurish uchun (rekonstruksiya qilish) 1 yillik imtiyozli davr bilan 8 yilgacha muddatga beriladi (yosh oilalar uchun 15 yilgacha 3 yillik imtiyozli davr bilan).

KREDIT TA'MINOTI:

Jismoniy shaxslar kreditning qaytarilish ta'minoti sifatida bankka o'zlarining xususiy mulk shaklida tegishli bo'lgan, yakka tartibda qurilgan va qurilayotgan uy-joylarni, ular joylashgan yer uchastkasi bilan birga ipoteka krediti hisobiga sotib olinayotgan hamda belgilangan tartibda qarz oluvchi mulkiga o'tayotgan yakka tartibdagi uy-joyi yoki ko'p qavatli uylardagi kvartiralarni, qarz oluvchining mulki bo'lgan va ipoteka krediti hisobiga rekonstruksiya qilinayotgan yakka tartibdagi uy-joyi garovga olgan ipoteka krediti olishlari mumkin.

KREDIT FOIZI:

Ipoteka kreditining ustama foizi bank bilan mijoz o'rtasida kelishilgan holda o'rnatiladi.

KREDIT MIQDORI:

- Qayta quriladigan (rekonstruksiya qilinadigan) uy-joy yoki sotib olinadigan kvartira uchun – eng kam ish haqining 2500 barobari miqdorida;
- Yakka tartibdagi uy-joy qurish va sotib olish eng kam oylik ish haqining 3000 barobari miqdorida.

KREDIT BO'YICHA DEPOZIT SUMMASI:

“Ipoteka omonati” hisob raqamiga so'ralayotgan kredit summasining 25 (yigirma besh) foizi miqdorida omonat qo'yiladi va kredit olgan kundan ertasiga kredit so'ndirilishiga yo'naltiriladi.

KREDIT OLISH UCHUN TAQDIM ETILADIGAN HUJJATLAR:

- Kredit berishni so'rab, kredit miqdori ko'rsatilgan ariza;
- Uy-joy qurish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda yer uchastkasi ajratilganligini tasdiqlovchi hujjatning notarial tasdiqlangan nusxasi;
- O'zi va u bilan yashaydigan oila a'zolarining ish joyidan ohirgi 12 oy uchun daromadlari to'g'risidagi ma'lumotnoma yoki yashab turgan manzili bo'yicha ohirgi 12 oy uchun shaxsiy daromadlari ko'rsatilgan, soliq organi tomonidan tasdiqlangan deklaratsiyalar nusxalari;
- Qurilayotgan uy-joylarning qonunchilikda belgilangan tartibda tuzilgan va arxitektura organi bilan kelishilgan loyiha-smeta hujjatlari, qurilish boshlashga tuman (shaxar) arxitektura organining ruxsatnomasi;
- Qurilayotgan uy-joy smeta qiymatining 25 foizi miqdoridagi dastlabki badal bankdagi depozitga joylashtirilganligi haqida bank ma'lumotnomasi yoki qurilayotgan uy-joy smeta qiymatining 25 foizidan kam bo'lmagan miqdorda qurilish montaj ishlari bajarilganligi haqida bank hodimlari ishtirokida tuzilgan dalolatnomaning asl nusxasi;
- O'zbekiston Respublikasining “Ipoteka to'g'risida”gi qonunida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan kreditning qaytarilishini kafolatlovchi ta'minot;
- Ariza beruvchining yashash joyidan uning oilasini tarkibi to'g'risida berilgan ma'lumotnoma;
- Mijozning soliq organlaridan qarzlari (yoki soliq majburiyatlari) yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma va ariza beruvchining passport nusxasi.

ESLATMA UCHUN:

- Kredit 15 yilgacha muddatga beriladi, bunda 3 yillik imtiyozli davr belgilanadi. Imtiyozli davrda kredit bo'yicha asosiy qarzdorlik to'lanmaydi.
- Yosh oilalar uchun ipoteka krediti birinchi marta rasmiy nikohdan o'tgan, 30 yoshdan oshmagan yosh oilalarga ajratiladi.
- Kredit foizi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasidan oshnagan holda.

Endi esa berilgan kreditlar bo'yicha amalga oshiriladigan tijorat banklaridagi buxgalteriya operatsiyalarini ko'rib chiqamiz.

Kredit bo'yicha foizli daromadni tan olish tartibi

Kredit bo'yicha foizlar odatda xar kuni yillik bazaviy davr - 365 kundan kelib chiqqan xolda xisoblab yoziladi. (Kreditlarning muayyan turlari bo'yicha 360 kun bazaviy davr qilib olinadi). Kredit bo'yicha foizlar quyidagi formulaga binoan xisoblanadi:

$$\frac{\text{so'ndirilmagan qoldiq x foiz stavkasi x amaldagi kunlar soni}}{365}$$

Misol:

ATB "Agrobank" Andijon viloyat filiali Marxamat "Agrobank" filialiga 1 000 000 000 so'm qiymatida yillik 13% stavka bilan moliyaviy yordam puli ajratdi. Foiz stavkasi kunlik xisob - kitoblar bo'yicha amalga oshiriladi. Bu summaning bir oylik yig'ilgan foiz summasi quyidagini tashkil qiladi.

$$1\,000\,000\,000 * 13\% * 31 / 365 = 11041096$$

Xisoblab yozish shartnomada belgilangan foiz stavkasiga asoslanishi lozim. Kredit bo'yicha foizlarni xisoblab yozish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt 16309 "Ssudalar bo'yicha olish uchun xisoblangan foizlar";

Kt 41400-44700 "Ssudalar bo'yicha foizli daromadlar".

Kredit bo'yicha foizlarning kelib tushishi quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt 10101 "Aylanma kassadagi naqd pullar" yoki bankning vakillik xisobvarag'i yoxud mijozning xisobvarag'i;

Kt 16309 "Ssudalar bo'yicha olish uchun xisoblangan foizlar".

Agar mijoz oy yakunlanishiga qadar kreditni qisman so'ndirsa, unda bank asosiy qarz summasining xaqiqatda so'ndirilmagan qismiga foizlarni xisoblab yozishi lozim.

Agar mijoz so'ndirish muddati kelgunga qadar kreditni to'liq so'ndirsa, unda bank kredit bo'yicha foizlarni xaqiqatda foydalanilgan kunlar uchun xisoblab yozishi lozim.

3.2. ATB “Agrobank” Andijon viloyat filialida qishloq ho’jalik korxonalari bilan kredit munosabatlari va uni amaliyotda qo’llanilishi

Tijorat banklari tomonidan 2007 yil 14 apreldagi 1675-sonli nizom asosida kreditlar qishloq xo’jaligi korxonalariga muddatlilik, to’lovlilik, ta’minlanganlik hamda maqsadli foydalanish shartlarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan g’alla va paxta xom ashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlarida beriladi.

Imtiyozli kreditlar tayyorlov tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalarida yetishtirilayotgan mahsulot qiymatining 60 foizigacha miqdorda (tayyorlov korxonasi tomonidan bo’nak tariqasida yetkazib berilgan urug’lik qiymatini inobatga olgan holda) g’alla uchun 1 yil (12 oy) va paxta uchun 1.5 yil (18 oy) gacha bo’lgan muddatga uzaytirish xuquqisiz beriladi.

Qishloq xo’jaligi korxonalarini kreditlash bank marjasini hisobga olgan holda, imtiyozli foiz stavkasi ya’ni (3%) miqdorida belgilanib, uning 2 foizi bank marjasini tashkil etadi.

Bunda kreditlar agrotexnik tadbirlar muddatidan kelib chiqqan holda paxta yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun hosil yetishtirilayotgan yilning

- 1 apreliga qadar 25 foizigacha,
- 1 iyuliga qadar 50 foizgacha,
- 1 sentyabriga qadar 60 foizgacha.

G’alla yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun esa:

- 1 yanvarga qadar 30 foizgacha,
- 1 aprelga qadar 50 foizgacha,
- 1 iyunga qadar 60 foizgacha moliyalashtiriladi.

Har oy va choraklarda ajratiladigan kredit resurslari miqdori Qishloq va suv xo’jaligi vazirligi taklifiga asosan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda o’zgartirilishi mumkin.

Kredit maksimal miqdorini aniqlash uchun paxta va g’alla hosilining Davlat tomonidan xarid qilinadigan amaldagi o’rtacha narxlari asos qilib olinadi.

Mazkur kreditlar quyidagi maqsadlar uchun berilishi mumkin:

- ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to'lash uchun;
- mineral o'g'it va o'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini xarid qilish uchun;
- yoqilg'i-moylash materiallari xarid qilish uchun;
- SIUlar (*suv iste'molchilari uyushmalari*) xizmati uchun to'lovlarga;
- Elektr energiya to'lovlariga;
- MTPlar, muqobil MTPlar va qishloq xo'jalik texnikasi mavjud bo'lgan boshqa xo'jalik sub'ektlarining xizmatlari uchun to'lovlarga;
- Lizingga (moliyaviy ijaraga) berilgan texnika vositalarining lizing to'lovlariga;
- yagona yer solig'i to'lovlariga;
- urug'lik uchun to'lovlarga;

Shuningdek, paxta va g'alla yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan xo'jaliklarning boshqa zurruriy ehtiyojlari uchun ham to'lovlar amalga oshiriladi.

Boshqa zaruriy ehtiyojlar hisobidan paxta va g'alla yetishtirish bilan bog'liq xarajatlarga, bank xizmati, xo'jalik va idora xarajatalari, xo'jalik irigatsiya va kollektor-derenaj tarmoqlarini tozalash xarajatlari, sug'urta xarajatlari, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to'lanadigan Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda ferer xo'jaliklari uyushmalarini saqlash xarajatlari uchun to'lovlar amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo'jalik korxonalarining biror-bir xarajat turi bo'yicha to'lovlarga ehtiyoji bo'lmagan hollarda, paxta va g'alla yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ruxsat etilgan xarajat turlari bo'yicha, shuningdek qishloq xo'jaligi texnikasi sotib olishga, ichki xo'jalik irigatsiya va kollektor drenaj tarmog'larini tozalashga ishlatilishi (mineral o'g'it, kimyoviy yoki biologik vositalar, yoqilg'i moylash materiallari va urug'lik material xarajatlari bundan mustasno me'yori kamaytirilmagan holda) mumkin.

Qishloq xo'jaligi korxonasiga imtiyozli kredit uning asosiy talab qilib olguncha depozit hisob raqami ochgan va unga xizmat ko'rsatayotgan bank tomonidan beriladi.

Ushbu kreditlarni ikkilamchi talab qilib olguncha depozit hisob raqami ochilgan bank tomonidan berilishiga ruxsat berilmaydi.

Shuningdek, 1675-sonli Nizomga banklar uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan qo'shimcha kiritilib, ushbu qo'shimcha va o'zgartirishlar 2011 yilning 7 aprelida 1675-1- sonli Nizom bilan Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tkazildi.

Ushbu nizomga ko'ra "Oldingi yillarda ajratilgan imtiyozli kreditlar to'liq so'ndirilgandan so'ng, joriy yil hosili uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi belgilab qo'yildi.

Nizom bo'yicha qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan imtiyozli kreditlarni olish uchun qo'yidagi xujjatlarni taqdim etishi belgilab qo'yilgan:

- ariza va unga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:
- tayyorlov tashkiloti bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomasi nusxasi;
- biznes reja;
- debitor-kreditor qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma (2 a-shakl) va moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl);
- ta'minot. (sug'urta polis yoki kafillik shartnomasi)

Kreditlar qaytishini ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi korxonalari o'zining tadbirkorlik xavfini sug'urta qilishi mumkin.

Bunda, sug'urta tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan sug'urta polisi kredit shartnomasida belgilangan kreditning to'liq qaytarish muddatiga beriladi.

Sug'urta tashkiloti bilan kelishilgan sug'urta puli taqdim etilayotgan kredit miqdoridan ko'p bo'lmasligi zarur.

Doimiy ravishda davlat buyurtmasini va tijorat banki oldidagi majburiyatlarini bajarib kelayotgan fermer xo'jaliklariga kreditlar qonunchilikda belgilangan tartibda ta'minotsiz (*ishonchli kreditlar*) ajratilishi mumkin.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi korxonalari paxta va g'alla yetishtirish xarajatlari uchun ajratilgan imtiyozli kreditlar va ularga hisoblangan foizlarning

muddatida qaytarilishini ta'minlash borasida tayyorlov korxonalarining kafillik shartnomalarini ham taqdim etishlari mumkin. Kafillik qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonasining imtiyozli kredit olish uchun taqdim etgan arizasini ko'rib chiqib xizmat ko'rsatuvchi bank 3 kun ichida u bilan kredit shartnomasi tuzishi lozim.

Bank kredit komissiyasi tomonidan kredit berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan hollarda, u raddiyani yozma shaklda izohlab berishi shart.

Kredit shartnomasi kuchga kirgandan so'ng, keyingi ish kunidan kechiktirmasdan qishloq xo'jaligi korxonasiga ssuda hisob varag'i ochiladi va ushbu hisob varaqdan agrotexnik me'yorlar bo'yicha to'lovlar o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining ssuda hisobvarag'idan to'lovlar yuqoridagi maqsadlar uchun naqd pulsiz shaklda (ish xaqidan tashqari) qishloq xo'jalik korxonalarining to'lov topshiriqnomalariga asosan amalga oshiriladi.

Shuningdek, imtiyozli kreditlar joriy yil hosili uchun yetkazib berilgan moddiy-texnik resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun 2-kartotekaga kirim qilingan va belgilangan tartibda qarz oluvchi tomonidan aktseptlangan to'lov talabnomalariga muvofiq to'lovlar amalga oshiriladi.

To'lov talabnomalari qarz oluvchi tomonidan aktseplanmagan taqdirda to'lovlar sud qarori asosida undiriladi.

SIU (Suv istimolchilari uyushmalari), o'simliklarni biologik usulda himoya qilish uchun biolaboratoriya va biofabrikalar hamda muqobil MTPlar tomonidan ko'rsatilgan texnika xizmatlari uchun to'lovlar ularning 23210-23220-sonli maxsus hisob raqamlariga o'tkazib beriladi.

